

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR
BILAN ISHLASH METODLARI**

Sarimsoqova Maftuna Obidjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti Maxsus

Pedagogika (logopediya) yo'nalishi 1-kurs

magistiranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim haqida va koxlear implant tushunchalari, koxlear implantli bolalar, koxlear implantni qo'llash, Inklyuziv ta'limda koxlear implantli bolalar bilan ishlashning asosiy texnologiyalari texnologiyalari ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Inklyuziv ta'lim, koxlear implant, texnologiya, eshitishda nuqsoni bor bolalar, maktab, pedagog.

ABSTRACT: In this article, the concepts of cochlear implant, children with cochlear implant, application of cochlear implant, basic technologies of working with children with cochlear implant in inclusive education are disclosed.

KEY WORDS: Inclusive education, cochlear implant, technology, hearing impaired children, school, pedagogue

АННОТАЦИЯ: В данной статье раскрыты понятия кохлеарный имплантат, дети с кохлеарным имплантатом, применение кохлеарного имплантата, основные технологии работы с детьми с кохлеарным имплантатом в инклюзивном образовании.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Инклюзивное образование, кохлеарный имплант, технологии, дети с нарушением слуха, школа, педагог.

Kirish

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarni, jumladan, eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni ham ta'lim tizimiga jalb qilishni nazarda tutadi. Koxlear implantlar, yoki quloq implantlari, eshitish qobiliyatini tiklashda muhim rol o'ynaydi va bu bolalarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Eshitish qobiliyatining ahamiyatini hech nimaga qiyoslab bo'lmaydi. Eshitish qobiliyati ko'pchilik odamlarga tug'ilishdan oq beriladi va odatdagidek qabul qilinadi. Shu sababli eshitish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qligi zamonaviy jamiyatda dolzarb muammo hisoblanadi. Eshitish vositalarini va eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni davolashda tibbiy yordamni rivojlantirish tarixi juda ko'p asrlar davomida va har bir yangi texnik qurilmaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda umumiy eshitish qobiliyati yo'qolgan bemorlarni davolashning yagona usuli koxlear implantatsiya hisoblanadi.

Koxlear implant nima?

Koxlear implant – bu ichki quloqning ishlashini ta'minlovchi elektron qurilma. U eshitish nervini stimulyatsiya qilib, ovozlarni tanib olishga yordam beradi. Bu bolalar uchun ta'lim jarayonida ovoz va muhitni anglash imkonini beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko'ra, eshitish apparatlari bilan birgalikda koxlear implantlarga kirishni ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, eshitish qobiliyatini yo'qotgan insonlar uchun muhim ustunlikni beradi.

Amaliyotda munozarali savollar ko'p uchrashi kuzatildi ya'ni, ovoz kuchaytiruvchi apparat yaxshimi? yoki Koxlear implantatsiyami? ushbu savolning amaliy yechimi sifatida quyidagi tibbiy, pedagogik, surdotexnik xulosalarimizni sanab o'tamiz:

1. Ko'p kanalli implantant eshitishning chastotali selektivligini, ya'ni akkustik signaldagi bir vaqtda mavjud bo'lgan chastotalarini ajrata olish qobiliyatini tiklashi mumkin. Eshitish apparatlari eshitishning chastotali selektivligini prinsip jihatidan tiklay olmaydi.

2. Implantni qo'llash akkustik qayta aloqaga yo'l qo'ymaydi (ko'pincha ovoz uchaytiruvchi apparat bilan eshitganda xonaning tovush qaytaruvchi ta'siri insonga salbiy ta'sir ko'rsatadi). SHunga muvofiq so'zlashuv nutqidagi o'ta past tovushlarni sezish imkoniyatini ta'minlaydi. Yuqorida sanab o'tilgan Koxlear implantatsiyaning qulayliklaridan tashqari ayrim kamchiliklari ham mavjuddir:

1. Koxlear implantatsiyadan so'ng nutqni eshitish sezgilarining yaxshilanish natijalarining variativligi (turli tumanligi). SHu kunga qadar implantatsiya qilinganlarning nutqni sezishlarini prognoz qilish uchun bir qator omillar aniqlanishiga qaramay, buning aniq prognozi keltirilgani yo'q.

2. Implantdan foydalanuvchi kishilarda jamlangan tovushlarni sezishda qiyinchilik tug'iladi, masalan musiqiy tovushlar. Bundan tashqari, mikrofon ma'lum masofadagi tovushlarni qabul qilishi mumkin, lekin katta masofalardan turib eshitish imkoniyati mavjud emas. Hozirgi kundagi elektron texnologiyalarning taraqqiy etishi bu kamchilikni bartaraf etishi ham mumkin.[1]

Koxlear implantatsiyani qo'llash

Koxlear implantatsiyani qo'llashga dastlabki ko'rsatma sensonevral karlikning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Keyingi Koxlear implantatsiya uchun tanlov me'yorlari – oddiy eshitish apparati bilan eshitishni protezlash samaradorligiga e'tibor qaratiladi. Agar inson oddiy eshitish apparatidan foydalanib 30-40% so'zlarni anglab olayotgan bo'lsa, Koxlear implantantga tavsiya etish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Agar kasalda javoblar 5% dan kam bo'lmasa va qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa uni implantatsiya qilishga ishonch bilan tavsiya etish mumkin.[5]

Bugungi kunda o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, qanchalik koxlear implantatsiya erta qilinsa, shunchalik natijalarni yaxshi bo'lishini kuzatishimiz

mumkin (Korolyova I.V). Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, bolani 2-3 yoshga to‘lguniga qadar, eshitishining pasayganligini va unga eshitish apparati yordam bermayotganligini payqagan kundan boshlab, tezlikda operatsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tishmoqda. Bola qanchalik erta operatsiya qilinsa, uning nutqini rivojlanishidagi muammolar ham shunchalik erta bartaraf qilinadi.[2]

Koxlear implantatsiyaning vazifalari quyidagidan iborat:

- Bolaning rovojanlashidagi meyordan chetga chiqishlarni erta tashhis qilish;
- Jarroxlik operatsiya orqali implantantni ko‘yish;
- rivojlanishida u yoki bu muammosi bo‘lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga reabilitatsiya qilish; ularni umumta‘lim muassasalariga uyg‘unlashtirish modellarini ishlab chiqish.[4]

Inklyuziv ta‘limda koxlear implantli bolalar bilan ishlashning asosiy texnologiyalari

1. Ovozli texnologiyalar:

Amplifikatsiya tizimlari: O‘qituvchilar uchun mikrofonlar va akustik tizimlar o‘rnatish orqali o‘qitish jarayonini yaxshilash.

Smartfonlar va ilovalar: Ovozli yoki matnli ma‘lumotlarni tezda yetkazish uchun mobil ilovalarni qo‘llash.

2. Vizuallik va multimediya resurslari:

Videolar va animatsiyalar: O‘qitishda vizual yordamchi vositalar yordamida tushunchalarni aniqroq etkazish.

Interaktiv ta‘lim platformalari: Bolalarning qiziqishini oshirish va interaktiv muhit yaratish.

3. Individual yondashuv:

Ta‘lim rejasini shaxsiylashtirish: Har bir bolaning ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish usullarini va materiallarini tanlash.

Reabilitatsiya dasturlari: Eshitish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun individual mashg‘ulotlar.

4. Ijtimoiy integratsiya:

Guruh ishlari: Koxlear implantli bolalar va boshqa bolalar o‘rtasida ijtimoiy muloqotni rivojlantirish uchun guruhli faoliyatlar.

O‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik: Ta‘lim jarayonida jamoaviy yondashuvni ta‘minlash [5]

Xulosa:

Koxlear implantli bolalar bilan inklyuziv ta‘limda ishlash uchun zamonaviy texnologiyalar va individual yondashuvlarni qo‘llash muhimdir. Bu yondashuvlar nafaqat ta‘lim jarayonini yaxshilaydi, balki bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshiradi va ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlaydi. Ta‘lim muassasalari ushbu texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali har bir bolaning imkoniyatlarini kengaytirishi

mumkin, bundan tashqari koxlear implantli bolalar bilan ishlash metodikasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va shaxsiy yondashuvlarni amalga oshirish orqali ta'lim jarayonini yanada mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. "Surdopedagogika". Sanostandart. T.: 2012. B. 289
2. Тихеева Е.И. Развитие речи детей. - М.: Просвещение, 1976.
3. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNICAL DEVICES IN THE DEVELOPMENT OF HEARING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(64). Извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6183
4. .P L. Mo'minova, SH. Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya - T.: Fan va texnologiyalar .2013.
5. Po'latova, L. Nurmuxamedova, SH. Amirsaidova Maxsus pedagogika - T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
6. Qodirova Malikaxon Kaxramonovna, Vaxobova Muxtabar Nurmuxammad qizi AQLIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNDA TESTLARDAN FOYDALANISH «Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an'analar va istiqbollari» mavzuidagi I-xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari (2-qism). Jizzax, 2023. – 398 bet.
7. BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATIV Munira, T Shoxistaxon - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024
8. BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLIISH CHORALARI
9. V Munira, MX Sodiqjonovna - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024
10. Цитируется: 2 Похожие статьи